

Ochko'z qushcha
Tailand xalq ertagi.

Bir zamonlarda jarangdor ovozli kichkina qushcha bo'lgan ekan. Uning nomi "Bu meniki" ekan, chunki u har safar qir-adir va daryolar ustidan uchib o'tayotib:

- Bu meniki, bu meniki! - deya chirqillarkan.

Bir kuni qushcha osmonda uchib borayotib mevasi g'arq pishib yotgan bir daraxtga ko'zi tushibdi. Daraxtning mevasi shunchalik ko'p ekani qushcha ularni bir o'zi bir yilda ham yeb bitira olmasligi aniq kan. Buning ustiga daraxtning yon-atrofida birorta ham qush zoti ko'rinmaskan.

Qushcha o'zining bunday topilmasidan behad xursand bo'lib, asta daraxt shoxiga kelib qo'nibdi. U shoxdan shoxga sakrab, mevalarni cho'qib yeya boshlabdi va tez orada qorni to'yib qolibdi. Biroq u bu daraxtni boshqa qushlar ham topib olib, uning mazali mevalarini yeb tugatishidan juda xavotirlanibdi. Qushcha qo'rquvga chiday olmay, ovozining boricha:

- Bu meniki, bu meniki, bu meniki! - deya chirqillabdi.

Qushcha shunchalik qattiq chirqillabdi, uning ovozini tevarak-atrofdagi qushlarning hammasi eshitibdi. Ular biror hodisa yuz bermadimikin, degan xayolda zum o'tmay o'sha yeiga uchib kelishibdi. Qushlar bu yerda ajoyib, mazali mevalar g'arq pishib yotganini ko'rishibdi-yu, yopirilib o'zlarini mevalarga urishibdi. Birpasda hamma mevalarni cho'qilab yeb tugatishibdi-yu, yanaqaytib uchib ketishibdi.

Mittigina ochko'z qushcha shipshiydan bo'lgan daraxt atrofida chir aylanganicha:

- Bu meniki, bu meniki! - deb chirqillab qolaveribdi. Aytishlaricha, mitti qushcha daraxt atrofida hozir ham aylanib uchib yurganmish.

Uzoq sharq kitobidan.